


I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 8 972,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi 125,6 foizni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida 1 912,8 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020- yil yanvar-iyunga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1 147,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 724,7 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020- yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 100,5 foiz va 112,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, (mlrd. so'mda)



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati



Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 826,4 mlrd. so‘mni o‘sish surati 118,7 % ni tashkil etdi.

O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ichimlik ishlab chiqarish 106,2 %ni, kiyim kechak ishlab chiqarish 91,6 %ni, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 123,8 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 954,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati indeksi 98,2 % ni tashkil etdi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati indeksi tabiiy gaz 56,5 % ni, neft 106,2 %ni, kondesat qazib olish hajmi 91,8 %ni va boshqa tog‘-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o‘sish sur’ati 118,6 %ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 2 124,6 mld. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 23,8 %ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini mahsulotlari o‘sish sur’ati indeksi o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan 171,6 %ni tashkil etgan.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 66,9 mld. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2021-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o’tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,7 %ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi
 (2021- yil yanvar-iyun oylarida)


	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati indeksi, foiz hisobida</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	8 972,7	125,6
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	954,8	98,2
<i>ulardan:</i>		
Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	14,7	106,2
Qayta ishlash sanoati	5 826,4	118,7
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 260,1	98,1
Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish	43,0	106,2
To‘qimachilik buyumlari	2 200,9	123,8
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1 834,7	116,1
Mebel ishlab chiqarish	31,6	114,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	124,6	118,3
Metallurgiya sanoati	42,1	5,0 m
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	2 124,6	171,6
Suv bilan ta’minalash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	66,9	105,7
Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish	1 912,8	104,5
<i>shu jumladan</i>		
Oziq-ovqat tovarlari	1 147,7	100,5
Nooziq-ovqat tovarlari	724,7	112,5



Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O’z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvariyun oylarida 8 972,7 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘sish sur’ati indeksi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 125,6 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 4 348,2 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib umumiylaj hajmiga nisbatan 48,5 %ni tashkil etsada, nodavlat sektorida 4 624,5 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiylaj hajmiga nisbatan 51,5 %ni tashkil etdi.

Davlat va nodavlat sektorlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish,%da




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 8 972,7 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,6 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati o‘sish sur’ati 98,2 %ni, qayta ishlash sanoati 118,7 %ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 171,6 %ni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 105,7 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



▣ Tog‘-kon sanoati

▣ Qayta ishlaydigan sanoat

▣ Elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo

▣ Su ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash

[Элемент легенды 4]

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi
(yirik korxonalar bo‘yicha)

O‘lchov birligi	2021- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyunga nisbatan %da
-----------------	-----------------------	--------------------------------------

Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz	mln. m ³	715,8	56,5
------------	---------------------	-------	------

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020- yil yanvar- iyunga nisbatan %da</i>
Neft	<i>ming tn.</i>	14,7	106,2
Suyultirilgan gaz	<i>ming tn.</i>	69,4	94,4
Kondensat	<i>ming tn.</i>	76,0	91,8

Ishlab chiqaradigan sanoat


Un	<i>tn.</i>	75 423,5	97,8
Non mahsulotlari	<i>tn.</i>	245,6	43,5
Omuxta yem	<i>tn.</i>	41 564,0	98,2
Tozalangan o'simlik moyi	<i>tn.</i>	1 577,0	35,8
Makaron mahsulotlari	<i>tn.</i>	47,0	13,1
Aroq va likyor mahsulotlari	<i>ming l.</i>	1 012,1	83,9
Vino mahsulotlari	<i>ming l.</i>	370,9	71,7
Kalava ip	<i>tn.</i>	16 260,0	111,8
Oltingugurt	<i>ming tn.</i>	0,5	96,7
Lint	<i>tn.</i>	3 600,0	126,1
Paxta tolasi	<i>tn.</i>	48 204,0	152,1
Paxta chigit	<i>tn.</i>	72 247,0	154,6
Shrot va sheluxa	<i>tn.</i>	7 553,0	35,8

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020- yil yanvar- iyunga nisbatan %da</i>
Xo'jalik sovuni	<i>tn.</i>	297,0	3,5 m
Kaliy o'g'iti	<i>ming tn.</i>	94,6	94,4
Termoplast quvurlari	<i>tn.</i>	1 770,0	68,9
Polietilen	<i>tn.</i>	68 110,0	101,7
Bug' va issiq suv (issiqqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	1523,0	95,8

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,7 %), G'uzor tumani (18,1 %), Qarshi shahar (16,8 %), Kasbi tumani (6,6 %), Qarshi tumani (6,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 8 972,7 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 2 678,0 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 123,4 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga 570,9 ming so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,5 % ga oshishiga olib keldi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 21,3 % ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 147,7 mlrd. so'mga yetkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 60,0 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 724,7 mlrd. so'm,


jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 37,9 %ni, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 40,4 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 2,1 %ni tashkil etdi.

Hududlarning iste'mol tovarlarining ulushi, % da




Tumanlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi eng yuqori ulushga ega bo'lgan Qarshi shahar (25,4 %), Chiroqchi tumani (13,4 %) tashkil etadi. Shuning bilan birga eng kam ulushga ega bo'lgan Dehqonobod (1,9 %), Muborak (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining fizik hajm indeksi, % da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumani (2,2 m.), Nishon tumani (177,3 %) kuzatilmoxda.

**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sish sur'atlari,
% da**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan)




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Shahrisabz tumani (117,2 %), Qamashi tumani (114,3 %) Qarshi tumani (113,0 %), Muborak tumani (112,6 %), Nishon tumani (109,2 %), G'uzor tumani (106,2 %) kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda bir maromdag'i o'sish kuzatildi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumani jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (98,1 %), Yakkabog' tumani (85,4 %) va Chiroqchi (83,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Kasbi (6,6 %), G'uzor (4,7 %), Nishon (4,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, (ming so‘mda)



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumaniga (14 592,1 ming so‘m), G‘uzor tumaniga (8 333,4 ming so‘m), Qarshi shahri (4 927,4 ming so‘m) ga to‘g‘ri keldi. Eng past ko‘rsatkich esa Qamashi tumani (707,9 ming so‘m), Kitob tumani (499,0 ming so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlarining hajmi, (ming so‘mda)



Hududlar kesimida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahri (1 741,0 ming so‘m), Shahrisabz shahri (898,4 ming so‘m), Shahrisabz tumani (687,6 ming so‘m), Chiroqchi tumani (605,4 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi. Eng past ko‘rsatkich esa Dehqonobod tumani (236,9 ming so‘m), Kasbi tumani (194,3 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 105 ta loyiha bo‘yicha 123,5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**
(yanvar-iyun oylarida)

	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	48	105
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	39	49
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so ‘m</i>	26,6	123,5
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	-	2,6
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	46	68

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 418,1 mldr. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 161,2 foizni tashkil etdi. O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 14,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida bu ko‘rsatkich 15,8 foizni tashkil etgan holda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foizga ko‘paygan.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning
umumiyligi hajmidagi ulushi***




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar

Bugungi kunda viloyatda 4 638 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 861 tasi Qarshi shahri va 514 tasi Kitob, 423 tasi Yakkabog', 363 tasi Shahrisabz shahar, 397 tasi Chiroqchi, 326 tasi Qarshi, 234 tasi Qamashi, 229 tasi Koson, 257 tasi Shahrisabz, 271 tasi G'uzor, 161 tasi Nishon, 228 tasi Kasbi va 137 tasi Mirishkor tumanlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik

(2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 959 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 16,6 foizi Qarshi shahriga, 8,8 foizi Kasbi, 9,0 foizi G'uzor, 6,4 foizi Qarshi, 8,4 foizi Yakkabog', 4,6 foizi Qamashi, 7,3 foizi Kitob, 6,8 foizi Shahrisabz shahar, 8,7 foizi Chiroqchi, 4,4 foizi Mirishkor, 3,3 foizi Koson, 3,0 foizi Muborak, 6,2 foizi Shahrisabz, 3,1 foizi Nishon hamda 3,5 foizi Dehqonobod tumanlariga to'g'ri keladi.